



NODAVLAT TA'LIM : YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

Karimova Saida

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21919902>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 11-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 13-avgust 2026 yil

KEY WORDS

*mehnat bozori, talim xatarlari,
kontrakt miqdori, dasturlar
moslashuvchanligi, qo'nimsiz
kadrlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistondagi nodavlat ta'lim sektorining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan bo'lib, uning davlat va jamiyatga keltirayotgan ijobiy yutuqlari va mavjud kamchiliklari tahlil etilgan. Shuningdek, mavjud kamchiliklar va xatarlarni bartaraf etish masalalari yoritib berilgan.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini liberallashtirish borasidagi sa'y-harakatlar so'ngi yillarda jadallashib bormoqda. Nodavlat ta'lim borasidagi islohatlar natijasi o'laroq xususiy sektor vakillariga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish huquqining berilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarish bo'ldi deyish mumkin. Natijada Respublikamiz bo'yicha yuzlab xususiy maktablar va oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. "Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-2026 o'quv yili boshiga O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni 551 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich avvalgi o'quv yiliga nisbatan 96 taga yoki 21,1 % ga oshgan. Hududlar kesimida nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni: Toshkent shahri - 145 ta, Farg'ona viloyati-121 ta, Samarqand viloyati - 43 ta, Andijon viloyati-37 ta, Namangan viloyati-37ta, Buxoro viloyati-32ta, Qashqadaryo viloyati-31ta Toshkent viloyati - 30 ta, Xorazm viloyati - 26 ta, Sirdaryo viloyati - 17 ta, Jizzax viloyati - 12 ta, Qoraqalpog'iston R. -10 ta, Navoiy viloyati - 5 ta, Surxondaryo viloyati - 5 ta". [1] "Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni 97 tani tashkil qilgan".[2] Ammo har qanday tezkor institutional transformatsiya kabi, nodavlat ta'lim sektorining shakllanib borishini faqatgina ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi. Bu jarayon ijobiy natijalar, imkoniyat bilan bir qatorda kamchiliklar va muayyan ijtimoiy xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtayi-nazardan qaralsa, nodavlat ta'lining yutuq va kamchiliklarini obyektiv tahlil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Nodavlat ta'lim tizimi, uning rivojlanishi, yutuqlariva kamchiliklari masalalari hamisha e'tiborda bo'lgan.

Xorijiy olimlardan [Daniel C. Levy](#) xususiy ta'lim tizimi, davlat va xususiy ta'lim o'rtasidagi raqobat masalalarini [3] tadqiq etgan bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan M.Akmalova,

M.Yoqubjonova nodavlat ta'lim tashkilotlarining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini yanada rivojlantirish [4] masalalarini tadqiq etishgan.

Tadqiqotni olib borishda qiyosiy tahlil ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar

Nodavlat ta'lim sektori jamiyat va uning rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ijobiy yutuqlariga to'xtalsak, ular quyidagilar:

- Yoshlarni ta'lim bilan qamrab olish imkoniyatini oshishi,
- infratuzilma modernizatsiyasi
- dasturlar moslashuvchanligi
- davlat byudjeti yukining yengillashishi kabilarni olish mumkin.

Nodavlat OTMLar va xususiy maktablar ko'payishi hisobiga aholining faol qatlami bo'lgan yoshlarni ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi so'ngi yillarda sezilarni darajada o'sdi. Bu davlat ta'lim muassasalari yukuni yengillatib, qamrov tirbandligini kamaytirdi.

Xususiy ta'lim muassasalari ta'lim tizimiga investitsiya olib kira oldi. AI texnologiyalarini, zamonaviy ilmiy laboratoriyalar va zamonaviy, qulay o'quv sharoitlarini yaratib berishda davlat ta'lim muassasalariga nisbatan faolroq. Bir qadam oldinda.

Nodavlat ta'lim muassasalari mehnat bozorida talab yuqorri bo'lgan yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlashga e'tibor beradi. Ayniqsa IT,biznes, sun'iy intellekt kabi sohalarga diqqatli. Mehnat bozoriga moslashuvchan.

"Nodavlat ta'lim tashkilotlari mamlakatimiz ta'lim tizimida diversifikatsiyani, ya'ni turli xil ta'lim shakllari va yo'nalishlarini taklif etish orqali, zamon talablariga javob berish, o'quv jarayonlarini modernizatsiya qilish va pedagogik innovatsiyalarni joriy etishga imkon yaratadi. Bu tashkilotlar ko'plab ijtimoiy guruhlar, hatto notijorat sektorlar bilan ham hamkorlikda ish olib borishi orqali, har bir shaxsning individual ehtiyojlariga mos tarzda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi"[4].

Xususiy oliy ta'lim muassasalari dasturlarini tezroq jahon standartiga moslashtirib bormoqda. Bu esa davlat universitetlarini ham o'quv dasturlarini yangilashga va talabalarga munosabatni o'zgartirishga majbur qilmoqda.

Nodavlat ta'lim muassasalarini yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Bular:

- ilmiy salohiyat pastligi
- kadrlarning qo'nimsizligi
- kontrakt narxlarining qimmatligi
- ilmiy-tadqiqotning susayishi kabilar.

Juda ko'p nodavlat oliy ta'lim muassasalari doimiy ilmiy-pedagogik tarkibiga ega emas. Ko'p hollarda davlat OTMLarida ishlovchi professor-o'qituvchilarni o'rindoshlik asosida ishga oladi. Bu ilmiy maktab shakllanishiga ham, dars sifatiga ham ta'sir qiladi.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari urg'uni o'quv jarayoniga berib, ilmiy tadqiqotlar masalasida oqsayabdi. Magistratura, doktorantura rivojlanishi juda sust kechmoqda. Shuningdek, xususiy OTMLarda kontrakt narxining yuqoriligi kam ta'minlangan aholi qatlamiga qiyinchilik tug'diradi. Yana bir narsaga e'tibor qaratish lozim oxirgi vatlarda xususiy OTMLar litsenziyalari standart talablarga javob bermasligi natijasida bekor qilinyapti. Bu mazkur o'quv

yurtida tehsil olayotgan talabalarni sarosimaga solib, aholi orasida nodavlat ta'limga ishonchsizlik uyg'onishiga ham sabab bo'lib qolmoqda.

Nodavlat ta'lim muassasalari bir vaqtning o'zida ham biznes subyekti sifatida daromad, foyda olishi kerak, ham ijtimoiy-ma'rifiy institut sifatida oliy malakali kadrlarni tayyorlashi kerak. Agar shu ikkisidan biri ustunlik qilib, ikkinchisi susaysa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa foyda olishga bo'lgan intilish ma'rifiy vazifadan ustunlik qilsa ta'lim o'zining ma'naviy-ma'rifiy boradagi vazifasini bajara olmay qoladi. Aynan shuning uchun ham daromad olish va akademik mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni topish muhim hisoblanadi.

Xulosa

Mamlakatimizda nodavlat ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanishi ijobiy jarayon bo'lib, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uni yoshlarni ta'lim bilan qamrab olish imkoniyatini kengaytirib, sog'lom raqobat muhitini shakllanishidagi roli katta. Ammo, ayrim xususiy muassasalarni foyda olishga bo'lgan intilishi akademik talabchanlikdan ustunligi jamiyatdan ijtimoiy nazoratni kuchaytirishni talab etadi. Nodavlat ta'lim muassasalari yuqori sifat nazorati va ijtimoiy mas'uliyatni his qilgan hoda faoliyat olib borsagina jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.https://t.me/statistika_rasmiy/7533
- 2.https://t.me/statistika_rasmiy/7641
- 3.Daniel C. Levy. Oxford University Press, 2024. – P.336
- 4.M.Akmalova, M.Yoqubjonova. Nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimidagi o'rni, ahamiyati // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 3. – B.867-873
- 5.Karimova, S. (2026). DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJIDA NODAVLAT TA'LIMNING O 'RNI VA AHAMIYATI. Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar, 3(6), 38-40.
- 6.Saida, K. (2026, May). DEVELOPMENT AND DISTINCTIVE FEATURES OF THE NON-STATE EDUCATION SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN. In Symposium on Natural and Applied Sciences (Vol. 1, No. 5, pp. 78-82).